

Fizika fani yo'nalishida stajyor-tadqiqotchi va doktorantura uchun maqsadli kvotalar ajratish bo'yicha brifing o'tkazildi

Bugun, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Fanlar akademiyasi ilmiy kadrlar bo'limi bosh mutaxassis Dilorom To'rayeva ishtirokida fizika fanini ilm-fan sohasining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar ko'lagini oshirish va jahoning yetakchi ilmiy tashkilotlariga yosh olimlarni qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish, stajyor-tadqiqotchilik va doktorantura uchun maqsadli kvotalar ajratish xususida brifing o'tkazildi.



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimida 2021-yilning may oyi holatiga faoliyat ko'rsatayotgan jami xodimlar 4966 nafar, ilmiy xodimlar - 2247, akademiklar 74, fan doktorlari 428 hamda fan nomzodi va falsafa doktorlari 797 nafarni tashkil qiladi.

Bugungi kunda tizimda mavjud 35 ta ilmiy muassasalardan 10 tasi fizika yo'nalishi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirmoqda. Bular, Yadro fizikasi, Fizika-texnika, Materialshunoslik, Ion-plazma va lazer texnologiyalari, Astronomiya, Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi, Seysmologiya, Energetika muammolari institutlari, Konstruktorlik byurosi va tajribaviy ishlab-chiqarish ilmiy-texnik markazi va RT-70 rasadxonasidir.

Fanlar akademiyasi tasarrufidagi ilmiy tashkilotlarda ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash ishlari bosqichma bosqich amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda tizimdagi ilmiy tashkilotlarda oliy ta'llimdan keyingi ta'llim bo'yicha 383 nafar tayanch doktorant, 55 nafar doktorant, 100 nafar stajer-tadqiqotchi hamda 125 nafar mustaqil-izlanuvchi tahsil olmoqda. Jumladan, tahsil olayotgan doktorantlarning 14%, stajer-tadqiqotchilarning 25% o'z ilmiy-tadqiqotlarini fizika yo'nalishi bo'yicha olib bormoqdalar.

2021-yilda Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlariga 136 ta tayanch doktorant, 20 ta doktorant va 100 nafar stajer-tadqiqotchi tanlov asosida o'qishga qabul qilingan bo'lsa, doktoranturaga qabul qilinganlarning 20% hamda stajer-tadqiqotchilarning 29%ni fizika yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul qilinganlar tashkil etadi.

2020-yil yakunlari bo'yicha tayanch doktoranturani 111 nafar tayanch doktorant bitirgan, ulardan muddatida himoya qilganlar 53 ta, doktoranturani 13 ta doktorant bitirgan bo'lib, 6 nafari o'z doktorlik dissertatsiyasini muddatida himoya qilgan. Bitiruvchilarga nisbatan samaradorlik tayanch doktorantlar

uchun 48%, doktorantlar uchun esa 46% tashkil qiladi.

2020-yil yakuni bo'yicha Fanlar akademiyasi tizimidagi tashkilotlarda jami 127 ta doktorlik dissertatsiyalari, ulardan 99 ta PhD va 28 ta DSc ilmiy darajalari himoya qilingan bo'lsa, aynan fizika yo'nalishi bo'yicha 23 ta ilmiy ish himoya qilingan bo'lib, umumiy hisobdan 18% ni tashkil etadi.

Ilmiy kadrlar tayyorlash samaradorligini yanada oshirish maqsadida Fanlar akademiyasi tizimidagi doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning faoliyati har yarim yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lidan keyingi ta'lim to'g'risida Nizom"ga muvofiq monitoringdan o'tkaziladi.

"Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror ijrosini ta'minlash maqsadida 2022 yil uchun fizika yo'nalishidagi tayanch doktorantura, doktorantura va maqsadli doktorantura kvotalari soni qariyb 1,5 baravarga oshirilmoqda. Maqsadli doktoranturaga kvota ajratish orqali viloyatlardagi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalariga ilmiy darajali kadrlar yetkazib berish rejashtirilgan. Hozirgi kunga qadar Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan Andijon, Samarqand, Farg'ona va Qoraqalpoq davlat universitetlari bilan maqsadli doktorantlarni qabul qilish bo'yicha shartnomalar qabul qilingan.

Fizika fanini ilm-fan sohasining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar ko'lамиni oshirish va jahoning yetakchi ilmiy tashkilotlariga yosh olimlarni qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish maqsadida 30 nafar ilmiy xodimlarning hujjatlari Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim etildi. Yosh olimlarning fizika yo'nalishidagi stajirovkalari asosan Rossiya Fanlar akademiyasining Mikroelektronika texnologiyalari muammolari va maxsus toza materiallar instituti, Belorussiya Fanlar akademiyasining Materialshunoslik instituti, Yaponianing Ritsumeykan universiteti, Italiyaning Salerno Universiteti, Chexiyaning Silesian universiteti, Xitooning Zejiang universiteti hamda Hindistonning universitetlararo Astronomiya va astrofizika markaziga rejashtirilgan.

Xorijiy davlatlardagi stajirovkalar jarayonida yupqa qatlamlı quyosh elementlari ustida tadqiqotlar o'tkazish, zamonaviy qurilmalarda mustaqil ishslash ko'nikmasiga ega bo'lish, ikkilik materiya-to'lqn solitonining gravitatsion maydon ta'siri ostida qaytaruvchi to'siqdagagi sakrash dinamikasini analitik va sonli usullar yordamida o'rganish, neytron-aktivatsion tahlil va mass-spektrometriya usullarini uyg'unlashtirgan holda o'ta toza moddalardagi mikroralashmalar miqdorini aniqlash uslublarini ishlab chiqish kabi vazifalar yosh olimlar tomonidan amalga oshirilishi kutilmoqda.